YANGI O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Parpiyeva Aziza
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti
Ilmiy rahbar: B.M Qandov CHDPU dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati tushunchasi va uning Yangi O‘zbekistonda rivojlanish bosqichlari o‘rganilgan.Shu bilan birga mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Fuqarolik jamiyati,adolat,erkinlik,Yangi O‘zbekiston.

Fuqarolik jamiyati Yangi O‘zbekistonda jamiyat a’zolarining erkin ijtimoiy hayot kechirishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.Xalqimiz mustaqillikning dastlabki yillarida o‘z ongida adolat,tenglik,inson qadri va huquqi kabi tushunchalar shakllana boshladi.Bu yillar o‘tib odatiy tushunchaga aylanib bordi. Fuqarolik jamiyati – haqiqiy fuqarolardan, ya’ni uzviy bog‘liqlikda bo‘lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir[1].[1]

Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar Aristotelning „Siyosat“ asarida bayon etilgan. Unga ko‘ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta’minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to‘g‘ri va adolatli bo‘lishiga alohida e’tibor beriladi. Bu g‘oyalar XXI asrga kelib keng rivojlandi. Jumladan, T.Gobbs asarlarida takomillashtiriddi. XVIII asr Buyuk fransuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi e’lon qilinishi bilan esa Fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi. Chunki jamiyatning teng huquqli a’zolari –„fuqarolar“tushunchasi paydo bo‘ldi, ular jamiyat va davlat manfaatlari bilan bog‘langan shaxsiy manfaatlarini anglay boshladilar. Sharqda Fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos talqini mavjud. Bu, bevosita, axloq, madaniyat va ma’naviyatning huquq bilan uyg‘unlashgan, fe’l-atvor, xatti-harakatlar va qoida me’yorlarning uzviy uyg‘unlashgan shakli bilan bog‘liq. Jumladan, eng qadimgi madaniy tarixiy-huquqiy yodgorlik – Avestoda kishilarning uyushib yashashi, o‘zaro munosabatlar va aloqalarning axloq va me’yorlarga tayanishi kabi g‘oyalar ilgari surilgan. Bunda o‘z-o‘zidan jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyatni shaxs tomonidan emas, qonun boshqarishi kabi Fuqarolik jamiyatining ilk belgilari namoyon bo‘lgan.

Forobiyning „Fozil odamlar shahri“ asarida mamlakatni boshqarishda adolatli qonun zarurligi, faol Fuqarolik jamiyatini shakllantirish mohiyati chuqur tahlil etilgan. Qonunlari mukammal bo‘lgan mamlakatda adolat, inson huquqlari ustuvor bo‘lishi muqarrar ekanligi bayon qilib berilgan. Forobiy fikriga ko‘ra, „Shahar (mamlakat) aholisi xushxulqqa ega bo‘lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug‘iladi“, jinoyatchilik, bezorilik, qonunbuzarlik qonunlar zaif, aholi axloqiy-ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lmagan sharoitda avj oladi. Bunday xalqni tartibga chaqirish uchun kuchli ta’sir o‘tkazuvchi hokimiyat kerak bo‘ladi[2, 7].[2] Uzoq tarixiy rivojlanish natijasida Fuqarolik jamiyatini hozirgi zamonaviy tushunish shakllandi. Unga ko‘ra, Fuqarolik jamiyatda mulkchilik shakllarining xilma-xil va teng bo‘lishi, mehnat va tadbirkorlikning erkinligiga yo‘l qo‘yilishi, mafkuraviy xilma-xillik va axborot erkinligi, inson huquq va erkinliklarining daxlsizligi, rivojlangan o‘zini o‘zi boshqarish, madaniylashgan huquqiy hokimiyat bo‘lishi hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligi ta’minlanishi muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonda Fuqarolik jamiyatini ko‘rish tarixiy an’ana bo‘lsada, u butunlay yangi tarixiy sharoitlarda jahon davlatchiligi ilg‘or tajribalari va ko‘p ming yillik milliy an’analarning sintezi sifatida dunyoga kelmoqda. Ya’ni erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, qonunga itoatkorlik va

[1] O’zbekiston milliy ensiklopediyasi *(2000-2005) ma’lumotlari*
[2] A.To‘rayev, I.Ahmedov Fuqarolik jamiyati:nazariya, amaliyot va innovatsion ta’lim (uslubiy qo’llanma). - Toshkent, 2018-7b

siyosiy huquqiy faollik, hurriyat va qat’iy tartib-intizom uyg‘unligida Fuqarolik jamiyati shakllantirilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda erkin va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida keng ko‘lamli va shiddatli islohotlar amalga oshirilmoqda.2017-2024 yillarda fuqarolik jamiyati institutlarini bevosita qo‘llab-quvatlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan 64 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun zarur huquqiy va institutsional baza yaratildi[3].[1] Bu borada Prezidentimiz, jumladan: “Fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish e’tiborimiz markazida bo‘ladi”[4] deb alohida e’tirof etdilar.

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida bir qator samarali ishlar amalga oshirildi.Jumladan,yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida birinchi marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag‘ishlangan alohida bob kiritilib, uning XIII bobi “Fuqarolik jamiyati institutlari”, deb nomlandi. Jumladan 69-moddada “Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi” deb mustahkamlab qo‘yildi.Eng asosiysi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada milliy qonunchiligimizda birinchi marotaba fuqarolik jamiyati institutlarining tarkibi ochib berildi. Ushbu institutlar fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi mustahkamlandi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining boshqa boblarning 5 ta moddasida fuqarolik jamiyati institutlarini manfaatlari himoya qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston tarixida ilk marotaba 2021–2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiyaning asosiy ustuvor yo‘nalishlari etib:

fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish;

fuqarolik jamiyati institutlariga ko‘mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish;

davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish;

fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash kerakki,Fuqarolik jamiyati tushunchasi antik davrdan e’tiboran mavjud kategoriya hisoblanadi.U asosida ko‘plab davlatlar o‘z siyosatini olib boradi.Fuqarolik jamiyati tushunchasini nazariy jihatdan ko‘plab Sharq va G‘arb olimlari o‘rganishgan.Bugungi kunda faol tushunchaga aylangan Fuqarolik jamiyati Yangi O‘zbekistonni qurish yo‘lidagi eng muhim asos sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B.124.

2. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi dasturi

3. PQ- 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida

4. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini 2025-yilda amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.05.2025 yildagi 288-son

5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi *(2000-2005) ma’lumotlari*

6. Saidov A.X. Yangi O‘zbekiston va fuqarolik jamiyati: holati va istiqbollari

7. To‘rayev A., Ahmedov I. Fuqarolik jamiyati:nazariya, amaliyot va innovatsion ta’lim. – Toshkent, 2018. – 220 b.

[1] A.X Saidov: Yangi O‘zbekiston va fuqarolik jamiyati: holati va istiqbollari